



UDK 1:008:159.955

Jafar MUSTAFAYEV,

PhD, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi, Samarqand davlat pedagogika instituti

E-mail: jafar.mustafayev.84@gmail.com

<https://ORCID.org/00090007-9199-1477>

Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent R.S. Mardonov taqrizi asosida

MA'NAVIY MEROS TADQIQIDA SINERGETIK TAFAKKUR VA TABIIY INTELLECT

Аннотация

Mazkur maqolada ma'naviy merosning avlodlar tomonidan tajriba va malaka oshirish, bilim va ko'nikma saviyasini yuksaltirish, milliy tafakkur tarzining ontologik va gnoseologik jihatlariga e'tibor qaratish, "sinergetika" tushunchasi bilan "sinergizm" o'rtasida farqli tomonlari, xaosning murakkab tizimlarda amal qilishi hamda uni o'z-o'zini yangilashga qaratilgan faoliyat uslubi, inson tafakkuridagi algoritmlar va terminlarning fikr yuritilayotgan obyektga nisbatan munosabati tahlil etiladi. Shuningdek, ma'naviy merosda sinergetikaning qo'llanilishi fanda yangi metodologiya sifatida yuzaga kelayotganligi, rivojlanishning chiziqsizligi va ko'pmuqobilliligi, ma'naviy merosda o'z-o'zini tashkil qilish qonunlarini amaliy ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: hamkorlik, metodologiya, ma'naviy meros, murakkab va ochiq tizim, bifurkatsiya, tizimlar, dissipativ struktura, paradigma, evolyutsiya, begonalashuv, fluktuatsiya, makrotuzilish, inson tafakkuri, sinergetik intellekt

«СИНЕРГЕТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ИССЛЕДОВАНИИ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ»

Аннотация

В данной статье анализируется роль духовного наследия в развитии опыта и навыков поколений, повышении уровня знаний и умений, с акцентом на онтологические и эпистемологические аспекты национального образа мышления, различия между понятиями «синергетика» и «синергизм», функционирование хаоса в сложных системах и его метод деятельности, направленный на самообновление, взаимосвязь алгоритмов и терминов в человеческом мышлении с объектом мысли. Также рассматривается возникновение использования синергетики в духовном наследии как новой методологии в науке, нелинейность и множественность развития, а также практическое значение законов самоорганизации в духовном наследии.

Ключевые слова: сотрудничество, методология, духовное наследие, сложная и открытая система, бифуркация, системы, диссипативная структура, парадигма, эволюция, отчуждение, флуктуация, макроструктура, человеческое мышление, синергетический интеллект.

“SYNERGETIC THINKING AND NATURAL INTELLIGENCE IN RESEARCH ON SPIRITUAL HERITAGE”

Annotation

This article analyzes the role of spiritual heritage in developing the experience and skills of generations, raising the level of knowledge and abilities, with an emphasis on the ontological and epistemological aspects of national thinking, the differences between the concepts of "synergetics" and "synergism," the functioning of chaos in complex systems and its method of action aimed at self-renewal, and the relationship between algorithms and terms in human thinking and the object of thought. It also examines the emergence of synergetics in spiritual heritage as a new methodology in science, the nonlinearity and multiplicity of development, and the practical significance of the laws of self-organization in spiritual heritage.

Keywords: collaboration, methodology, spiritual heritage, complex and open system, bifurcation, systems, dissipative structure, paradigm, evolution, alienation, fluctuation, macrostructure, human thinking, synergetic intelligence.

Kirish. Ma'naviy merosda sinergetikaning qo'llanilishi fanda yangi metodologiya sifatida yuzaga kelmoqda. Sinergetika XX-asrning 70-yillarida nemis olimi, Shtutgart universiteti professori G.Xaken va belgiyalik olim, Bryussel universiteti professori, Nobel mukofoti sovrindori Ilya Prigojin nomi bilan bog'liq bo'lsada, bu yangi metodologiya, ma'naviy merosda azaldan mavjud bo'lib, uning xususiyatlari ochib berilmagan yoki boshqa nomlar bilan atalib kelingan. Faqatgina ushbu olimlar turli tizimlarda beqarorlik va barqarorlik, tasodif va zaruriyat, tebranish va turg'unlik hamda boshqa sinergetik jarayonlarni amal qilishini isbotlab berdilar.

Sinergetika atamasini asl mohiyati "birgalik", "birlashgan holda", "hamkorlik", "ko'maklashish", "ishtirokchilik" degan ma'nolarni anglatadi. Sinergetika

termini ilmiy manbalarda "uzluksiz hamkorlik", "murosa falsafasi", "muvofiqlashtirilgan harakat", "birgalikda foydalanish" kabi ma'nolarda keladi. Ushbu soha jamiyat va tabiatdagi ko'pvariantli tizimlarda o'zini - o'zi tashkil qilish jarayonini, evolyutsiyaning qay bosqichida xaos ijobiy rol o'ynashi, xaosdan tartibning paydo bo'lishi, qonuniyatdan chetlashish holatlari (fluktuatsiya), beqaror va barqaror holat, chizikli va chiziqsiz taraqqiyot, hozirgi zamon dunyo manzarasining yangi ustuvorliklarini - muvozanatsiz beqaror dunyo konsepsiyasini, rivojlanishning chiziqsizligi va ko'pmuqobilliligi hodisasi kabi masalalarni o'rganadi. Sinergetika umumfalsafiy metodologiya sifatida strukturogenezning eng umumiy qonuniyatlarini aniqlashni o'z

predmetiga aylantirgan o'z-o'zini tashkil etish metodologik ta'limotidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bir guruh fidoiylar tashabbuslari bilan uzoq yillik mafkuraviy tazyiqqa qarshi madaniy va tarixiy qadriyatlarini hamda an'analarni asrab qolishga erishdi. Tarixan ma'naviy va madaniy merosimiz shonli o'tmishga ega. "Butun dunyoga mashhur imom at-Termiziy, al-Buxoriy, Naqshbandiy, Yassaviy, Ibn Sino, Farobiy, Ulug'bek, Beruniy va Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarning salohiyati boy va betakror ma'naviy merosimizda o'z aksini topgan. Shuningdek, Amir Temur saroyida riyoziyot (matematika), handasa (geometriya va trigonometriya), falakiyot (astronomiya) ilmlaridan bahs yurituvchi ilmiy to'garaklar faoliyat olib bora boshlaydi. Sokrat, Platon, Aristotel, Ptolomey, Yevklid asarlarini, Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Chag'miniy risolalaridagi nazariy g'oyalarni amaliyotga, ayniqsa me'morchilik va dehqonchilik sohalariga tadbiiq etilishi o'zining samarasini bera boshladi" [1].

Ma'naviy meros, millat va Vatanning hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga qo'yilganini eng yorqin namunasi bu – milliy tafakkur tarzidir. Bugungi kunda ma'rifat, ta'lim va ma'naviy meros o'ta shiddatli va katta ko'lam bilan o'z qulochini yozmoqda. Ajdodlarimizning har qanday masalada tashabbuslari milliy ma'naviy merosimizning qon tomirlariga yugurgan hayot misolidir.

Har qanday ma'naviy meros biron millat, xalq tomonidan bunyod etilib, keyinchalik umumbashariy ahamiyat kasb etib boradi. Turon zamin xalqlarining o'tmishi, avlodlari qoldirgan ma'naviy merosi buning namunasidir. Geosiyosiy jihatdan dunyoda ma'naviy meros xususiyatlari ham vaqti-vaqti bilan o'zgarib boradi.

Xalqlar, millat va elatlarning ma'naviyati, tarixi, madaniyati, yashash va turmush tarzi sinergetik jarayonlardan iborat ekanligi, ma'lum bir shaxsning aql-zakovati beqaror jamiyatni tinch, osoyishta muhitga aylantirishda muhim o'rin tutadi. Bu sinergetik tafakkur tarzining amalda namoyon bo'lishidir. "Ma'naviy merosni o'rganishda faqatgina mavjud, saqlanib qolgan, ko'zga tashlanuvchan, ko'pchilikka mashhur, fundamental asarlarni o'rganish, tadqiq etish bilan chegaralanib qolmasdan, ikkinchi darajali, e'tiborga tushmagan manbalarni, u qadar mashhur bo'lmagan mualliflarning asarlariga ham e'tibor qaratishga, turli til va lahjalarda yozilgan manbalarga ham diqqatni yo'naltirishga to'g'ri keladi" [2].

XX asr so'ngiga qadar ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarda tasodif, beqarorlikni, o'zgarish va yangilanishni tizimdan quvishgacha olib kelingan edi. Unda tasodif, beqarorlikni, o'zgarish va yangilanishni ikkinchi darajali, umumiy yo'nalishga ta'sir ko'rsatadigan asosiy kuch emas, deb qaralar edi. Zamonaviy sinergetikada mikrofluktatsiya - mikro darajada tebranib turadigan vaziyatda alohida olingan tasodif, beqarorlikni, o'zgarish, yangilanish va innovatsiya tizimning holatini o'zgarishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama. Sharq falsafasida qadimdan shunday hollarni payqashgan. "Agar to'g'ri tashqil qilinsa, kuchsiz kuchlini yengadi, yumshoq qattiq ustidan, past baland ustidan g'alaba qiladi" [3] – degan edi Lao Szi. Sinergetika ma'lum sharoitda tez "oqim" (lavina) shaklidagi jarayonlarning chiziqsiz holatini, o'z-o'zini rag'batlantiruvchi o'sish qonuniyatlarini ochib beradi. Sinergetikaning asoschilaridan biri sanalgan belgiyalik olim I.Prigojin o'zining bu to'g'ridagi ta'limotida o'z-o'zini tashkil qilish qonunlarini, xaosdan tartibga o'tish qonuniyatlarini ko'rsatib berdi.

Elitar fanlarning postnklassik bosqichi va istiqbolini belgilab olishda sinergetikaning ilmiy-metodologiyasi strategik taraqqiyot mexanizmlarini izlab topishga qaratilgandir. Lekin, masalani bu tarzda yoritish bahsli bo'lib, munozaraga olib kelayotgani turli soha vakillari tomonidan ta'kidlanmoqda. Bunday bahs-munozalar esa sinergetik paradigmaning ochilmagan qirralarini yoritishda qo'l keladi.

Shtutgart universitetining "Nazariy fizika va sinergetika instituti"da sinergetikaga doir 69 jildidan iborat kitoblar va risolalar chop etilgan bo'lib, 20 dan ortiq fan sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari

davom ettirilmoqda. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida sinergetikaning tabiiy-ilmiy va falsafiy g'oyalarni aks ettiruvchi 400 dan ziyod monografiya va o'quv qo'llanmalar chop etilib, 200 dan ko'proq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Shu o'rinda bugungi kunda mamlakatimizda ham sinergetika va uning paradigmalar masalalarini o'rganish borasida muayyan ishlar amalga oshirilganini alohida qayd etib o'tish joiz. Jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti chop etilgan ilmiy to'plamda, I.Mo'minov nomli "Falsafa va huquq" instituti va Namangan Davlat universiteti bilan birgalikda o'tkazilgan "Sinergetikaning tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolari" nomli ilmiy-nazariy konferensiyasida ilmiy-fundamental mavzular ko'tarildi [4]. Bunday tadbirlar sinergetika paradigmasi borasida istiqboldagi tadqiqot ishlari belgilab olishda muhim o'rin egallaydi.

Natijalar. Ba'zi izohli lug'atlarda esa sinergetikaning "sinergizm hodisalarni o'rganuvchi fandi", "sinergizm o'z-o'zini tashkillashtiruvchi sistema komponentlarining kombinirlashgan harakatidir; olamni va alohida sistemalarni yaxlit qabul qilishning ilmiy konsepsiyasi" [5] kabi ta'rif va tasniflari ko'rsatib o'tilgan. Biroq, tadqiqotlarda keltirilgan "sinergetika" tushunchasi bilan "sinergizm" o'rtasida farqli jihatlar ham mavjud bo'lib, ularni ta'riflashda bunga ham alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Chunki Aristotel ishlatgan "sinergizm" bilan G.Xaken qo'llagan "sinergetika" o'zining shakllanish tarixidan tortib maqsadi, vazifasi va qo'llanilish sohasiga ko'ra ham farq qiladi. Chunki, antik davrdagi, sinergizm kategoriyasi ko'proq ijtimoiy munosabatlardagi hamkorlikni ifodalasa, sinergetika esa o'z-o'zini tashkillashtirish nazariyasi bo'lib, bunda tabiiy, aniq, texnik, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va gumanitar fanlarga ham tegishli nohiziqlik harakat va voqeyliklarni ham qamrab oladi.

"Sinergetika XX asrning 70-yillarda yuzaga kelgan ilmiy tadqiqotlarning fanlararo yo'nalishi bo'lib, u o'zini asosiy vazifasi sifatida–turli fizikaviy, kimyoviy, biologik, texnik, ijtimoiy-iqtisodiy sistemalardagi o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonlari asosida yotuvchi umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni bilishga alohida e'tibor qaratadi" [6] – deyiladi "Zamonaviy G'arb falsafasi" lug'at-kitobida. Menimcha ushbu berilgan tavsif sinergetikani umumiy mohiyati va mazmunini tushuntirib bera olmaydi.

Bu borada Yu.L.Klimontovichning ta'rifi shunga yaqin keladi: "Sinergetika mustaqil ilmiy soha emas, u fanlararo yangi ilmiy yo'nalishdir, uning maqsadi tabiatshunoslikning turli sohalarini, shuningdek sosiologiya va hatto lingvistikaning umumiy qonuniyatlari, umumiy g'oya va metodlarini yuzaga chiqarish, undan tashqari, sinergetika doirasida turli maxsus sohalarining kooperatsiyasi yuz beradi" [7]. Mazkur ta'rifda sinergetikaning ilmiy-falsafiy xususiyatiga alohida urg'u berilgan. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, bizning nazrimizda sinergetika – borliqdagi (ochiq tizim) o'zgarishlar va o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonini ko'p ma'noli ekanligi va ularni bilishda muqobil qarashlarga tayanish lozimligini hamda bunda nohiziqlik tafakkur asosida fikr yuritish muhimligini izohlovchi tushunchadir.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, sinergetikada insonning haqiqatni bilish faoliyatida ilmiy yondashuvni ko'pxilliligini ta'minlash masalasi V.I.Arshinov, V.E.Voysexovichlarning ilmiy tadqiqotlarida ko'proq ko'zga tashlanadi. Ularga ko'ra, "Sinergetika tabiat va jamiyatni o'z-o'zini tashkillashtirish muammosiga oid ilmiy bilimlarni nohiziqlik tafakkur va o'zaro tartiblangan tadqiqot metodlari orqali yechimini topishga imkoniyat yaratadi" [8]. Fikrimizcha, sinergetika inson tabiati, jamiyat va insonni mavjudligi hamda o'z-o'zi haqida fikrlashiga oid yangi ilmiy fikr-mulohazalarni muayyan darajada tizimga soladigan yangi falsafiy paradigma.

Nohiziqlik fikrlash, falsafa va fan doirasida murakkab tizimlarni o'rganish uslubi, muammolarni hal qilishda chiziqlik fikrlashdan chekinib, innovatsion fikrlashni yangidan kashf etadigan soha – sinergetika hisoblanadi. Buni juz'iy darajada bo'lsada quyidagilar bilan isbotlash mumkin bo'ladi:

– har bir hodisaga, hattoki qotib qolish jarayoniga uni rivojlanishi deb qarash, o'tmishi va kelajagi dialektikasi,

qismlardagi kechayotgan jarayonlar evolyutsion taraqqiyotiga to'sqinlik qila olmaydi. Va bu jarayonda rivojlanishni orqaga qaytarib bo'lmashligini, uni ko'p variantlilikini inobatga olish kerak bo'ladi;

– hozirgi zamon nafaqat o'tmish orqali aniqlanadi, balki kelajakda ham quriladi. Aniq, idrokli aynan ular bugungi xulqimizni belgilaydi, kelajakka qarab intilishimizni yanada oshiradi. Bu jarayon jamiyatdagi ko'pincha kelajakka bo'lgan ishonchsizlikni bartaraf etishga yordam beradi hamda insonlardagi futurshok va begonalashuvning oldini oladi.

– har bir sistema, tashkil bo'lishning pastki pog'onalaridan ozod emas. Ko'p hollarda aynan shu “boshlang'ich” pog'onalaridan makroevolyutsion jarayonlar kelib chiqadi. Fluktuatsiyalarni kuchayishi, nohiziqli olamda kichik bir sabablar katta oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi.

– rivojlanish faqat o'zgaruvchanlik orqali amalga oshiriladi, eng yuqori turg'unlik esa rivojlanish dinamizmi, ritm qonunlari asosida paydo bo'ladi. Bu jarayonda xaos bir vaqtning o'zida ham yemiruvchi ham yaratuvchi rol o'ynaydi. Faqat uning aniq chegarasini, mezonini aniqlash oson bo'lmaydi. Xaos murakkab sistemalarda amal qilishi hamda uni o'z-o'zini yangilashiga yordam beradigan holat murakkab sistemalardagi mukammal tashkillashishdir.

– har bir yangilik bir vaqtning o'zida unutilgan eskilikni qalqib chiqishi bifurkatsiyalar natijasida rivojlanish yo'llari

ADABIYOTLAR

1. Тураев Б. Мазънавий меросни ўрганишда синергетик методологиянинг ўрни. // “Ахмад ибн Ҳафс Кабир Бухорий мероси ва унинг илк Шарқ Ренессанси ва ислом фалсафаси илмий-назарий асослари яратишдаги ўрни ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. -Бухоро. 2022 йил.
2. Тураев Б. Мазънавий меросни ўрганишда синергетик методологиянинг ўрни. // “Ахмад ибн Ҳафс Кабир Бухорий мероси ва унинг илк Шарқ Ренессанси ва ислом фалсафаси илмий-назарий асослари яратишдаги ўрни ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. -Бухоро. 2022 йил.
3. Библия фалсафаси. — Муаллифлар жамоаси. Тошкент: Университет, 2005.
4. Синергетиканинг фалсафий масалалари. – Тошкент: Университет нашриёти, 2005. – Б.180.; Синергетиканинг табиий-илмий ва фалсафий муаммолари: илмий-назарий семинар (илмий мақолалар тўплами) / Таҳрир хайати: М.Н.Абдуллаева ва бошқа. – Наманган: НамДУ, 2009. – Б.208.; Синергетика: ривожланиши ва истиқболлари: илмий анжуман (илмий мақолалар тўплами) / таҳрир хайъати М.Н.Абдуллаева ва бошқ. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Наманган Давлат ун-ти, ЎзР ФА, И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти. – Наманган.: Наманган нашриёти, 2010. – Б.260.
5. Толковый словарь русского языка XX века. Языковые изменения. Под ред. Г.Н. Складневской. Российская академия наук, Институт лингвистических исследований. – Спб., 1998. – 586 с.
6. Современная западная философия: Словарь/ Сост.: В.С. Малахов, В.П. Филатов – М.: Политиздат, 1991. – 276 с.
7. Климонтович Ю.Л. Введение в физику открытых систем // Соросовский образовательный журнал. – 1991. №8. – С.111.
8. Қаранг: Аршинов В.И., Войцехович В.Э. Синергетическое знание: между сетью и принципами. Синергетическая парадигма. М., 2000. – 107-120 с.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2020-yil 5-oktabr). ““Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2021-yil 17-fevral). “Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”.
11. Князева Е.Н. Случайность, которая творит мир (новые представления о самоорганизации в природе и обществе) // В поисках нового мировидения: И.Пригожин, Е. и Н.Рерихи. – М.: Знание, 1991. – 64с.
12. Хакен Г. Иерархия неустойчивостей в самоорганизующихся системах и устройствах. – Санкт-Петербург: Мир, 1985. – 237 с.
13. Хакен Г. Синергетика: Иерархии неустойчивостей в самоорганизующихся системах и устройствах. Пер. с англ. – М.: Мир, 1985. – 9 с.
14. Аршинов В.И., Войцехович В.Э. Синергетическое знание: между сетью и принципами. Синергетическая парадигма. М., 2000. – 107-120 с.
15. Тураев Б.О. Танланган асарлар. 1-том. -Тошкент: Наврўз, 2015. – 352 б.
16. J.Mustafayev. Ma'naviy meros - sinergetik tadqiqot obyekti sifatida // falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Samarqand. -2024.
17. Mustafayev J.Sh. Tabiiy intellekt va shaxsiyat masalasi: psixofiziologik va sinergetik tahlil//, Tamaddun nuri / The light of civilization. 2025-yil, 10-son (73), Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. ISSN 2181-8258 IF-9.347 DOI 10.69691
18. Mustafayev J.Sh. Progressive-ontogenetic properties of artificial and natural intelligence// Scial Journal of Education Humanities and Social Sciences, Vol. 3. 10, (2025), ISSN Online: 2961-0389, Website: <https://www.scialjournals.com/index.php/SJEHSS/index>, Submitted: August 03, 2025/ Accepted October 08, 2025/ Published October 16, 2025. – P.40-46.
19. Mustafayev J.Sh. Artificial Intelligence And Social Life Determinism // Open Academia: Journal of Scholarly Research. Volume 3, Issue 10, October, 2025. ISSN (E): 2810-6377, Website: <https://academiaone.org/index.php/4>, -P. 11-16.
20. Mustafayev J.Sh. Shaxs aql-idroki va sun'iy intellekt dialektikasi // BERDAQ nomidagi QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETINING AXBOROTNOMASI. ISSN 2010-9075 № 2 (69) HUKUC-2025.
21. "Axborotlashgan jamiyat: muammo va yechimlar." Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent: Fan, 2019.
22. Bekmuratov Q.A. Sun'iy intellekt. Oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun o'quv qo'llanma. - T.:«Aloqachi», 2019. -312 bet
23. Karimov I.M., Turgunov N.A. Axborot xavfsizligi asoslari. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi nashriyoti, 2016 yil, 98 b.
24. Kubayeva Sh. Intellectual Games: Stimulating the Development of The Human Mind //International Journal of Scientific Trends. – 2023. – T. 2. – №. 12. – С. 74-78